

UO‘K(UDC, YDK): 82.03:821.512

INGLIZ BADIY ASARLARINING RUS TILI ORQALI O‘ZBEK TILIGA BILVOSITA TARJIMASIDA MUALLIF USLUBINING SAQLANISHI¹⁸

Kurbanbayeva Dilnoza Sheripbay qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani

41-sonli maktab ingliz tili o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: dilnozakurbanbayeva2909@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-5326-2913

ANNOTATSIYA

Maqola badiiy tarjimashunoslikning yetarlicha o‘rganilmagan qirasi ingliz badiiy asarlarining bevosita asliyatdan emas, balki rus tili vositasida o‘zbek tiliga o‘girilishida muallif uslubining saqlanishi muammosiga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi bilvosita tarjimada uslubiy siljishlarning yuzaga kelish mexanizmini nazariy jihatdan asoslash, ularni tug‘ilgan bosqichiga ko‘ra farqlash imkonini beruvchi ilmiy tahlil apparatini ishlab chiqish hamda muallif uslubi qatlamlarining bunday tarjimaga chidamlilik darajasini aniqlashdan iborat. Tahlil materiali sifatida uch xil janr va uch xil individual uslubga mansub asarlar A.K.Doylning “Baskervillar iti” detektiv qissasi, R.L.Stivenzonning “Xazinalar oroli” sarguzasht romani va R.Bredberining “Marsga hujum” fantastik turkumidagi novellalar hamda ularning ruscha va o‘zbekcha nashrlari tanlab olindi. Metodologiya sifatida an’anaviy ikki matnli qiyosdan farqli o‘laroq, uch matnli qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil (asliyat – vositachi rus matni – o‘zbekcha tarjima) qo‘llanildi; bu esa lingvostilistik, kontekstual-semantik va lingvokulturologik tahlil usullari bilan uyg‘unlashtirildi. Tadqiqotda ilk bor “ikki karra transformatsiya” modeli asoslanib, uning yordamida uslubiy hodisalar meros yo‘qotishlar, ikkilamchi yo‘qotishlar va ikkilamchi kompensatsiyalarga ajratildi. Ilmiy xulosa shundan iboratki, bilvosita tarjimada uslubiy siljishlar bir emas, ikki bosqichda tizimli ravishda yuzaga keladi va ularni xolis baholash faqat uch matnli qiyos orqali mumkin.

KALIT SO‘ZLAR

Bilvosita tarjima, vositachi til, ikki karra transformatsiya, uch matnli qiyos, meros yo‘qotish, ikkilamchi kompensatsiya, muallif uslubi, milliyalashtirish, uslubiy adekvatlik.

Received: June 10, 2026

Accepted: June 22, 2026

Available online: September 5, 2026

¹⁸ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Kurbanbayeva D. Ingliz badiiy asarlarining rus tili orqali o‘zbek tiliga bilvosita tarjimasida muallif uslubining saqlanishi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 297-312.

PRESERVATION OF THE AUTHOR'S STYLE IN THE INDIRECT TRANSLATION OF ENGLISH LITERARY WORKS INTO UZBEK THROUGH RUSSIAN

Kurbanbayeva Dilnoza Sheripbay qizi

*Independent Researcher of
Uzbekistan State University of World Languages,*

English language teacher at school No. 41

Quyi Chirchiq district, Tashkent region

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: dilnozakurbanbayeva2909@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-5326-2913

ABSTRACT	KEYWORDS
The article addresses an insufficiently studied aspect of literary translation studies the preservation of authorial style when English literary works are translated into Uzbek not directly from the source but through Russian as an intermediary language. The aim of the study is to provide a theoretical account of the mechanism by which stylistic shifts arise in indirect translation, to develop an analytical apparatus capable of distinguishing these shifts according to the stage at which they originate, and to determine the degree to which the layers of authorial style withstand such translation. The analysis draws on works belonging to three different genres and three different individual styles A.C. Doyle's detective novella "The Hound of the Baskervilles", R.L. Stevenson's adventure novel "Treasure Island" and the novellas of R. Bradbury's science-fiction cycle "The Martian Chronicles" together with their Russian and Uzbek editions. Methodologically, in contrast to the conventional two-text comparison, a three-text contrastive analysis (source – intermediary Russian text – Uzbek translation) is applied, combined with linguo-stylistic, contextual-semantic and linguoculturological methods of analysis. The study substantiates, for the first time, a "two-fold transformation" model, by means of which stylistic phenomena are classified into heritage losses, secondary losses and secondary compensations. The principal scholarly conclusion is that in indirect translation stylistic shifts arise systematically not at one but at two stages, and that they can be objectively assessed only through a three-text comparison.	Indirect translation, intermediary language, two-fold transformation, three-text comparison, heritage loss, secondary compensation, authorial style, domestication, stylistic adequacy.

СОХРАНЕНИЕ АВТОРСКОГО СТИЛЯ ПРИ ОПОСРЕДОВАННОМ ПЕРЕВОДЕ АНГЛИЙСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ С РУССКОГО НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Курбанбаева Дильноза Шерипбай кызы

Учитель английского языка школы № 41

Куйичирчикского района Ташкентской области,

самостоятельный соискатель

Узбекского государственного университета мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: dilnozakurbanbayeva2909@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-5326-2913

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Статья посвящена недостаточно изученному аспекту художественного переводоведения – сохранению авторского стиля при переводе английских художественных произведений на узбекский язык не непосредственно с языка оригинала, а через русский язык как язык-посредник. Цель исследования состоит в том, чтобы теоретически обосновать механизм возникновения стилистических сдвигов при опосредованном переводе, разработать аналитический аппарат, позволяющий различать эти сдвиги в зависимости от этапа их возникновения, а также определить степень устойчивости уровней авторского стиля к такому переводу. Материалом анализа послужили произведения, принадлежащие к трём различным жанрам и трём различным индивидуальным стилям: детективная повесть А.К. Дойла «Собака Баскервиль», приключенческий роман Р.Л. Стивенсона «Остров сокровищ» и новеллы из научно-фантастического цикла Р. Брэдли «Марсианские хроники» вместе с их изданиями на русском и узбекском языках. В качестве методологии, в отличие от традиционного двухтекстового сопоставления, применён трёхтекстовый сравнительно-сопоставительный анализ (оригинал – промежуточный русский текст – узбекский перевод) в сочетании с лингвостилистическим, контекстуально-семантическим и лингвокультурологическим методами анализа. В исследовании впервые обоснована модель «двойной трансформации», с помощью которой стилистические явления подразделяются на унаследованные потери, вторичные потери и вторичные компенсации. Основной научный вывод заключается в том, что при опосредованном переводе стилистические сдвиги возникают системно не на одном, а на двух этапах и что их объективная оценка возможна только посредством трёхтекстового сопоставления.	Опосредованный перевод, язык-посредник, двойная трансформация, сопоставление трех текстов, унаследованные потери, вторичная компенсация, авторский стиль, доместикация, стилистическая адекватность.

KIRISH

Badiiy tarjima madaniyatlararo muloqotning muhim shakli bo'lib, unda asarning mazmuni bilan bir qatorda muallifning individual uslubi ham yangi tilda qayta yaratilishi lozim. Muallif uslubini saqlash muammosi zamonaviy tarjimashunoslikning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi, chunki u tilshunoslik, adabiyotshunoslik, qiyosiy stilistika va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada yuzaga keladi (Newmark P., 1988, 47; Baker M., 1992, 71). Bu muammoning alohida, ammo yetarlicha o'rganilmagan qirrasini asarning asliyat tilidan emas, balki uchinchi, vositachi til orqali tarjima qilinishi holatidir.

Jahon adabiyoti namunalarining o'zbek tiliga o'zlashtirilishi tarixida vositachi til ko'p hollarda rus tili orqali amalga oshirilgan tarjimalar salmoqli o'rin egallaydi. XX asrning ikkinchi yarmida nashr etilgan ko'plab ingliz asarlari o'zbek kitobxoniga aynan ruscha tarjima orqali yetib kelgan. Garchi bunday tarjima uzoq vaqt "ikkinchi darajali" hodisa sifatida qaralib kelgan bo'lsa-da, jahon tarjimashunosligida u so'nggi o'n yilliklarda mustaqil tadqiqot obyektiqa aylandi. G.Turi bilvosita tarjimani tarjima adabiyoti tizimidagi tabiiy va qonuniy hodisa sifatida asosladi (Toury G., 1995, 129); E.A.Gutt esa relevantlik nazariyasi doirasida vositachi matn qanday qilib yangi kontekstda qayta talqin qilinishini ko'rsatdi (Gutt A., 2000, 105). A.Pim tarjimashunoslikning turli nazariy yo'nalishlarini umumlashtirib, bilvosita tarjimani tarixiy-tavsifiy tadqiqotning muhim mavzusi sifatida ko'rsatdi (Pym A., 2010, 87), S.Bassnet esa madaniy burilish kontekstida vositachilikning matn poetikasiga ta'sirini ta'kidladi (Bassnett S., 2002, 45). Vositachi tilning izlari va realiyalarning o'zgarishi masalasi S.Vlaxov va S.Florinning realiyalar nazariyasi bilan bevosita bog'lanadi (Влахов С., Флорин С., 1980, 51), L.Venutining begonalashtirish–milliylashtirish tipologiyasi esa ikkinchi bosqichdagi madaniy siljishlarni izohlashda muhim tayanch beradi (Venuti L., 1995, 20). O'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov, N.Komilov va Q.Musayev asarlarida muallif uslubini saqlash muammosi chuqur yoritilgan bo'lsa-da (Salomov G'. , 1983, 112; Komilov N., 1988, 76; Musayev Q., 2005, 143; Ochilov E., 2014, 88), bu

tadqiqotlar asosan bevosita tarjimaga qaratilgan; bilvosita tarjimaning uslubga ta'siri esa maxsus, matniy dalillarga tayangan qiyosiy tahlil obyekti bo'lmagan.

Mavjud tadqiqotlarda bilvosita tarjima ko'pincha ikki matnli asliyat va yakuniy tarjima qiyosi doirasida baholanadi. Biroq bunday yondashuv har bir uslubiy siljishning qaysi bosqichda vositachi tilga o'tishdami yoki undan o'zbek tiliga o'tishdami tug'ilganini ajrata olmaydi va shu bois tarjimon mahoratiga adolatsiz baho berish xavfini tug'diradi. Ana shu ilmiy bo'shliqdan kelib chiqib, mazkur maqola quyidagi tadqiqot savollariga javob izlaydi:

- bilvosita tarjimada uslubiy siljishlar qanday mexanizm asosida yuzaga keladi;
- muallif uslubining qaysi qatlamlari bunday tarjimaga chidamli, qaysilari zaif;
- siljishning aniq bosqichini belgilash uchun qanday tahlil apparati zarur.

Tadqiqotning ilmiy farazi bilvosita tarjimada uslubiy siljishlar bir emas, ikki bosqichda tizimli ravishda yuzaga kelishi va ularni faqat uch matnli qiyos orqali xolis baholash mumkinligidir.

ASOSIY QISM

Tadqiqot materiali uch xil janr va uch xil individual uslubga mansub asarlarni qamrab oladi. Detektiv janri A.K.Doylning "Baskervillar iti" qissasi bilan, sarguzasht nasri R.L.Stivensonning "Xazinalar oroli" romani bilan, fantastik nasr esa R.R.Bredberining "Marsga hujum" turkumidagi novellalar bilan ifodalandi. Har bir asar bo'yicha uch matn tahlilga jalb etildi: ingliz tilidagi asliyat; XX asr o'rtalarida chop etilgan nufuzli ruscha tarjima (jumladan N.Chukovskiy va boshqalar amalga oshirgan nashrlar); hamda shu ruscha nashrlardan o'girilgan o'zbekcha tarjimalar. O'zbekcha nashrlarning aynan ruscha matnlardan tarjima qilingani kitob chiqish ma'lumotlarida ochiq ko'rsatilgan bo'lib, bu tadqiqot uchun muhim hujjatli asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy metodologik yangiligi uch matnli qiyosiy-chog'ishtirma tahlildir. An'anaviy ikki matnli (asliyat–tarjima) qiyosdan farqli o'laroq, bu usulda har bir uslubiy birlik zanjirning uchala bo'g'inida asliyat (A), vositachi rus matni (R) va o'zbekcha tarjima (O') parallel kuzatiladi. Shu tariqa siljishning tug'ilgan nuqtasini aniq belgilash imkoni yaratiladi.

Tahlil “ikki karra transformatsiya” tushunchasiga asoslanadi: $A \rightarrow R \rightarrow O$ zanjirida transformatsiya bir emas, ikki bosqichda amalga oshadi va har bir bosqich o‘z siljishini qo‘shadi. Shundan kelib chiqib, uslubiy hodisalarni farqlash uchun uch a‘zoli analitik apparat ishlab chiqildi: (a) meros yo‘qotishlar birinchi bosqichda ($A \rightarrow R$) tug‘ilib, o‘zbek tarjimoni bartaraf eta olmaydigan siljishlar; (b) ikkilamchi yo‘qotishlar aynan ikkinchi bosqichda ($R \rightarrow O$) paydo bo‘lgan yangi siljish va xatolar; (c) ikkilamchi kompensatsiyalar o‘zbek tarjimonining vositachi matn doirasidagi mustaqil, ijodiy topilmalari. Tahlil jarayonida qo‘shimcha ravishda lingvostilistik tahlil, kontekstual-semantik tahlil va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi. Uslubiy siljishlarni transformatsiya va ekvivalentlik nuqtai nazaridan tasniflashda tarjima transformatsiyalari hamda ekvivalentlik darajalari nazariyasiga (Рецкер Я.И., 1974, 38; Комиссаров В.Н., 1990, 51) tayanildi. Har bir asardan uslubiy jihatdan yuklama tashuvchi tayanch parchalar (leytmotivlar, obraz tizimlari, nutqiy portretlar, sintaktik figuralar) tanlab olinib, uch matn bo‘yicha qiyoslandi.

Tahlil bilvosita tarjima o‘zbek badiiy tarjimachiligida tasodifiy emas, tizimli hodisa ekanini tasdiqladi. Tanlangan uchala o‘zbekcha nashr ham rus tilidan o‘girilgan bo‘lib, ularning chiqish ma‘lumotlarida vositachi manba aniq ko‘rsatilgan. Bu holat tadqiqotning markaziy metodologik xulosasini quvvatlaydi: bunday matnni xolis baholash faqat uch matnli qiyos orqali mumkin, chunki ikki matnli qiyos siljishning manzilini u birinchi bosqich merosimi yoki ikkinchi bosqich hodisasimi ajratib bera olmaydi.

Meros yo‘qotishlar (birinchi bosqich) o‘zbek tarjimoniga bog‘liq bo‘lmagan, vositachi matnda allaqachon sodir bo‘lgan siljishlardir. Stivenson romanining ochilish jumlasiga bunga yorqin misoldir: aslyatda yetmishga yaqin so‘zdan iborat, absolyut sifatli qurilmalari bilan XVIII asr memuar uslubiga soxta-arxaik tarzda modellashtirilgan yagona davr o‘smir qahramonning “kattalardek” yozishga urinishini aks ettiradi (Stevenson R.L., 1883, 7). Ruscha tarjimada bu davr bir necha mustaqil gapga bo‘lib tashlangan va uning uslubiy funksiyasi yo‘qolgan; o‘zbekcha matn esa shu segmentatsiyani izchil takrorlab, yo‘qotishni meros qilib olgan. Bu

yerda o'zbek tarjimoni aybdor emas u asliyatning sintaktik qurilmasini umuman ko'rmagan.

Doyl asaridagi arxaik parcha matn ichidagi 1742-yilgi qo'lyozma teskari, ijobiy holatni ko'rsatadi: ruscha tarjima slavyanizm-arxaizmlar vositasida asliyatning XVIII asr yozma uslubiga funksional ekvivalent yaratadi va bu uslubiy signal o'zbekchaga ham muvaffaqiyatli meros o'tadi (Doyle A.C., 1902, 24). Demak, birinchi bosqich siljishlari doim salbiy emas: vositachi matn asliyat uslubining muayyan qatlamini saqlab qolsa, u o'zbek tarjimoniga "tayyor" resurs sifatida yetib keladi.

Meros yo'qotishlarning yana bir turi mikrodarajadagi "zanjir effekti"da ko'rinadi. Stivenson romanida kema jo'nash sahnasida asliyatdagi "uchinchi" so'zi ruscha tarjimada "so'nggi" bilan almashtirilgan; bu mayda siljish o'zbekchaga o'zgarishsiz meros o'tib, matnda "so'nggi „xo"" tarzida qotib qolgan. Bunday holatlar o'zbek tarjimonining vositachi matnga to'liq bog'liqligini ko'rsatadi: u asliyatni ko'rmagani uchun birinchi bosqichda kiritilgan har qanday o'zgarishni xoh ma'noviy, xoh uslubiy tabiiy ravishda "asliyat" deb qabul qiladi va uni takrorlaydi.

Ikkilamchi yo'qotishlar (ikkinchi bosqich) aynan ikkinchi bosqichda, rus tilidan o'zbek tiliga o'tishda tug'iladi. Ularning eng tipik ko'rinishi sarguzasht janrining "dengiz havosi"ni ta'minlovchi maxsus terminologiyaning yemirilishidir. Stivenson asarida asliyat uchta aniq, bir-biridan farqli dengiz atamasini qo'llaydi; ruscha tarjima ularni uch xil termin bilan, sahifa osti izohlari orqali saqlaydi; o'zbekcha tarjima esa uchala terminni ham yagona umumiy so'z ("chig'ir") bilan almashtirib, tabaqalashgan professional leksikani bir leksemaga "yig'ib" qo'yadi. Natijada janrning professional koloriti aynan shu nuqtada eng katta talafot ko'radi: termin o'rnini tavsifiy izoh egallaydi, badiiy matn esa lug'aviy sharh ohangini oladi.

A.K.Doyl asarida ikkilamchi yo'qotish detektiv janrining tayanch vositasi anaforik gradatsiyaga tegadi. Sherlok Xolmsning mashhur xulosasida bitta fe'l to'rt marta aynan takrorlanib, tobora kuchayuvchi ritmik zanjir hosil qiladi (Doyle A.C., 1902, 130). Ruscha tarjima bu figurani biroz siqilgan holda, ammo takror asosida saqlaydi; o'zbekcha tarjimada esa to'rt marta takrorlangan fe'l to'rt xil sinonimik

shakl bilan almashtiriladi va, buning ustiga, xalqona ibora qo‘shiladi. Natijada Xolmsning quruq, mantiqiy-tahliliy nutqi folklor registriga siljiydi, anafora esa sinonimik variatsiyaga aylanib, figuraning uslubiy funksiyasi yo‘qoladi. Bu holat o‘zbek tarjima amaliyotida so‘zma-so‘z takror ko‘pincha uslubiy “kambag‘allik” deb qabul qilinib, sinonimik “boyitish”ga almashtirilishini ko‘rsatadi va holanki bunday takror muallifning ongli uslubiy vositasidir.

Xuddi shu asarda gotik atmosferaning tayanch obrazlari ham ikkinchi bosqichda yemiriladi: asliyatdagi dahshatli maxluqni ifodalovchi so‘zning uslubiy tovlanishi neytrallashadi, keng va sirli tabiat manzarasini ifodalovchi obraz esa torroq, prozaik tushuncha bilan almashtiriladi. Bu siljishlar alohida olganda kichik ko‘rinsa-da, jamlanganda asarning saspens tahlika kutilmasi ohangini sezilarli darajada yumshatadi.

R.Bredberi novellalarida ikkilamchi yo‘qotish obraz tizimining o‘ziga tegadi. Asliyatda uy bekalari qishki manzarada avval ayiqlarga o‘xshatiladi, so‘ng bu o‘xshatish metaforaga o‘stiriladi (“ayiq qiyofalarini tashladilar”) (Bradbury R., 1950, 15). Ruscha tarjima ikkala o‘rinda ham obrazni saqlaydi, o‘zbekcha matnda esa metafora ikki marta ham buyum tavsifiga ayiq terisidan tikilgan po‘stin darajasiga tushiriladi, o‘xshatish-metafora zanjiri uziladi. Xuddi shu novellada asliyatning kesimsiz, “telegraf” ohangidagi nominativ jumlasini o‘zbek tilining agglutinatativ qurilishi tufayli to‘liq fe‘lli gapga cho‘ziladi va ritmik keskinlik yo‘qoladi. Bundan tashqari, ikkinchi bosqichda sof leksik xato “soxta do‘st” hodisasi ham kuzatiladi: ruscha “chana” ma‘nosidagi so‘z o‘zbekchada “konki” (muz poyabzali) bilan berilib, ma‘no buziladi.

R.Bredberining jonlantirish (personifikatsiya) qatlami ikkinchi bosqichda beqaror bo‘lib chiqadi. Asliyatda qishki manzarani ochuvchi “qirovdan ko‘r bo‘lib qolgan oynalar” obrazi ruscha tarjimada ehtiyotkorlik bilan saqlanadi, o‘zbekchada esa oddiy holat tavsifiga (“oynalarni qalin qirov bosgan”) tushib, jonlantirish semasi o‘chadi. Qizig‘i shundaki, o‘zbek tarjimoni boshqa o‘rinda, asliyatda va ruscha matnda bo‘lmagan yangi jonlantirish yaratadi (“maysalar mung‘ayib ko‘rindi”). Demak, ikkinchi bosqich personifikatsiyani bir o‘rinda o‘chirib, boshqa o‘rinda o‘zi

yaratadi; muammo shundaki, bu almashinuv muallif joylashtirgan nuqtalarga mos kelmaydi va muallif obrazlar tizimi oʻrnini tarjimonning stixiyali obrazlilik egallaydi.

R.Bredberi uslubining eng oʻziga xos belgisi siliq, “zichlashgan” metaforalar ikkinchi bosqichda alohida qiyinchilik tugʻdiradi. Yozuvchi bir necha soʻzga butun bir obrazni joylaydi: masalan, marslik shaharni suyakdek oq va oʻlik tasvirlovchi siliq birikma yoki koʻzlarni tangaga qiyoslovchi metafora (Bradbury R., 1950, 3). Bunday tuzilmalar koʻpincha allaqachon birinchi bosqichda yoyilib yoki tushirib qoldirilib, oʻzbekchaga yetib kelganda oʻzining zichligini yoʻqotadi va oddiy tasvirga aylanadi. Shu tariqa R.Bredberi poetikasining oʻziga xos kam soʻz bilan koʻp obraz yaratish tamoyili ikki bosqichli tarjimada muntazam ravishda yemiriladi. Bundan tashqari, oʻzbekcha matnda asliyatda ham, vositachi matnda ham boʻlmagan yangi tasvirlar (“osmonda bulutning choki soʻkildi” kabi) paydo boʻladi bu tarjimonning erkin qoʻshimchasi boʻlib, matnning obrazlilik “zichligi”ni oʻzgartiradi.

Ikkilamchi kompensatsiyalar Ikkinchi bosqich faqat yoʻqotishlardan iborat emas. Oʻzbek tarjimonlarining ijodiy salohiyati vositachi matn doirasidagi mustaqil topilmalarda namoyon boʻladi. Stivenson tarjimasida personajlar nutqiga “boʻtam”, “ogʻayni” kabi iliq, jonli murojaat shakllarining kiritilishi qahramonlar ovozini qisman tiklaydi. R.Bredberi turkumida sheʼr va qoʻshiqlarning qofiya bilan qayta yaratilishi, ayrim sheʼriy obrazlarning muvaffaqiyatli oʻzbekcha muqobili topilishi ham shu qatorda turadi. Doyl asaridagi arxaik qoʻlyozma parchasining oʻzbek tilining tarixiy-kitobiy uslub resurslari bilan qayta yaratilishi ham diqqatga sazovor: oʻzbek tarjimoni vositachi matnning arxaik ohangini his qilib, uni “boʻlgʻayki”, “mazkur” kabi eski shakllar orqali mustaqil tiklaydi. Bu topilmalar oʻzbek tarjimonlarining yuksak mahoratini koʻrsatadi, ammo ular faqat vositachi matnda mavjud boʻlgan doirada qoladi: asliyatda boʻlib, ruscha matnda oʻchgan uslubiy belgini hatto isteʼdodli tarjimon ham qaytadan tiklay olmaydi. Aynan shu chegara bilvosita tarjimaning tub cheklovini tarjimon salohiyatiga emas, usulning oʻziga xos tabiatiga bogʻliq cheklovni koʻrsatadi.

Bilvosita tarjimaning o'ziga xos "genetik pasporti" o'zbekcha matnda qolgan vositachi til izlarida ko'rinadi. Stivenson tarjimasida asliyatdan emas, aynan ruscha matndan ko'chgan "krujka", "skameyka", "yunga" kabi o'zlashmalar, shuningdek ruscha nashrdagi izohlarning o'zbekchaga deyarli so'zma-so'z ko'chirilishi buni tasdiqlaydi. Bu izlar alohida olganda mayda detal bo'lsa-da, jamlanganda matnning vositachi til orqali o'tganini ochib beruvchi ishonchli belgilar tizimini tashkil etadi.

Quyidagi jadval uch asar bo'yicha aniqlangan asosiy uslubiy hodisalarni "ikki karra transformatsiya" modeli asosida umumlashtiradi.

1-jadval.

Uslubiy hodisalarning "ikki karra transformatsiya" modeli bo'yicha tasnifi.

Uslubiy hodisa	Namoyon bo'lishi (misol)	Turi
Sintaktik memuar davri (Stivenson)	Yagona davr → mustaqil gaplar	Meros yo'qotish ($A \rightarrow R$)
Arxaik qo'lyozma (Doyl)	XVIII asr uslubi funktional saqlangan	Meros (ijobiy, $A \rightarrow R$)
Dengiz terminologiyasi (Stivenson)	3 termin → 1 umumiy so'z ("chig'ir")	Ikkilamchi yo'qotish ($R \rightarrow O'$)
Obraz zanjiri (R.Bredberi)	Ayiq-metafora → po'stin tavsifi	Ikkilamchi yo'qotish ($R \rightarrow O'$)
"Soxta do'st" (R.Bredberi)	chana → "konki" xatosi	Ikkilamchi yo'qotish ($R \rightarrow O'$)
Nutqiy portret (Stivenson)	"bo'tam", "og'ayni" murojaatlari	Ikkilamchi kompensatsiya
Vositachi til izi (Stivenson)	"krujka", "skameyka", izohlar	Ikkinchi bosqich izi

Uch asar tahlilidan kelib chiqadigan eng muhim nazariy natija muallif uslubiy qatlamlarining bilvosita tarjimaga turlicha chidamliligi qonuniyatidir. Uslubning mazmun-mantiqiy o‘zagi detektivdagi mantiqiy xulosa zanjiri, sarguzasht asaridagi voqealar dinamikasi, fantastikadagi syujet ikki bosqichli transformatsiyaga bardosh beradi, chunki u so‘z shakliga emas, mazmun mantig‘iga tayanadi va shuning uchun tarjimadan tarjimaga “o‘zgarmas” bo‘lib o‘tadi. Aksincha, uslubning “yuza” qatlami atmosfera, personaj ovozi, obraz va ohang har bir bosqichda yemirilishga uchraydi. Boshqacha aytganda, bilvosita tarjimada asarning “nima haqida”ligi saqlanadi, “qanday aytilgani” esa xiralashadi. Bu qonuniyat uch xil janr materialida bir xilda tasdiqlangani uning tasodifiy emas, tizimli tabiatga ega ekanini ko‘rsatadi. Uslubiy ekvivalentlikni tarjima sifatini baholashning asosiy mezon sifatida qarash (Гарбовский Н.К., 2004, 214) ushbu qonuniyatni nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

Qonuniyatning muhim tafsiloti shundaki, yemirilish har safar aynan muallif uslubining tayanch komponentiga to‘g‘ri keladi. A.K.Doylda eng ko‘p zarar gotik atmosfera qatlamiga tushadi: dahshatli it obrazining uslubiy tovlanishi neytrallashadi, qir manzarasi obrazi torayadi, suspens ritmi yumshaydi. R.L.Stivensonda zarba personajlarning nutqiy portretiga dengizchilar shevasi va professional leksikaga tushadi, natijada qahramonlar ovozi neytrallashib, bir-biriga o‘xshab qoladi. R.R.Bredberida esa yemirilish metaforik tizimning o‘zagiga yetadi: siqiq metaforalar yoyiladi yoki tushiriladi, obraz zanjirlari uziladi, rang palitrasi dag‘allashadi. Demak, bilvosita tarjima muallif uslubining eng nozik, eng individual joyini nishonga oladi bu esa uni nafaqat miqdoriy, balki sifatiy jihatdan ham xatarli qiladi.

Quyidagi jadval har bir muallif uslubining eng ko‘p zarar ko‘rgan tayanch komponentini “zarba nuqtasi”ni umumlashtiradi.

Har bir muallif uslubining “zarba nuqtasi”.

Muallif / janr	Uslubning tayanch komponenti	Yemirilish ko‘rinishi
A.K.Doyl (detektiv)	Gotik atmosfera va suspens ritmi	Dahshat obrazining neytrallashuvi, anaforik gradatsiyaning sinonimik variatsiyaga aylanishi
R.L.Stivenson (sarguzasht)	Personaj nutqiy portreti	Dengiz terminlarining bitta umumiy so‘zga “yig‘ilishi”, shevaning neytrallashuvi
R.R.Bredberi (fantastika)	Metaforik tizim	Siqiq metaforalarning yoyilishi/tushishi, obraz zanjirining uzilishi, rang palitrasining dag‘allashuvi

Ikkinchi bosqichning yana bir muhim xususiyati o‘zbek tarjimonlariga xos izchil milliyalashtirish (sharqonalashtirish) tendensiyasidir. U o‘rinli madaniy moslashtirishdan tortib, muallif olamini butunlay o‘zga madaniy koordinatalarga ko‘chiruvchi jiddiy siljishlargacha turlicha darajada namoyon bo‘ladi. R.Bredberi turkumida bu tendensiya ayniqsa yaqqol ko‘rinadi: Mars kanallari izchil “anhor”ga, begona hayvon obrazi “g‘azol”ga, daraxt “majnuntol”ga aylantiriladi, hatto matnga o‘zbek xalq maqoli kiritiladi. Doyl asaridagi “xudosiz” ma’nosidagi so‘zning “qur’onni tanimagan” tarzida berilishi ham shu qatorda turadi begona diniy-madaniy kontekst mahalliy tushuncha bilan almashtiriladi.

Bu hodisa ikki yoqlama tabiatga ega: bir tomondan, u matnni o‘quvchiga yaqinlashtiradi va tabiiy qiladi; ikkinchi tomondan, uni asliyat muhitidan uzoqlashtirib, muallifning betaraf bayon ohangini va asarning geografik-madaniy

makonini o'zgartiradi Mars manzarasi o'zbek vodiysiga, begona qahramon tanish milliy tipga aylanib qoladi. Tahlil ko'rsatishicha, milliylashtirish me'yor muallif uslubi bilan belgilanishi lozim: tarjimon erkinligining chegarasi muallif ovozinining betarafligi yoki milliyligi darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bu siljishlar ko'pincha ijobiy ijodiy salohiyat bilan yonma-yon keladi masalan, muayyan she'riy obrazlarning o'zbekchada topqir muqobili yaratilishi bu esa milliylashtirishni oddiy "xato" sifatida emas, balki tarjimonning ongli madaniy strategiyasi sifatida baholashni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari jahon tarjimashunosligidagi bilvosita tarjima nazariyasini o'zbek materiali asosida boyitadi. G.Turi va E.A.Gutt bilvosita tarjimani umumiy nazariy jihatdan asoslagan bo'lsalar-da (Touri G., 1995, 130; Gutt E.-A., 2000, 108), uning uslubiy oqibatlarini bosqichma-bosqich, matniy dalillar bilan farqlash apparati taklif etilmagan edi. "Ikki karra transformatsiya" modeli va uch a'zoli tasnif (meros yo'qotish – ikkilamchi yo'qotish – ikkilamchi kompensatsiya) ana shu bo'shliqni to'ldiradi. O'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov va N.Komilov muallif uslubini saqlash tamoyillarini bevosita tarjima doirasida ishlab chiqqan bo'lsalar (Salomov G', 1983, 98; Komilov N., 1988, 54), mazkur tadqiqot bu tamoyillarni bilvosita tarjimaning o'ziga xos sharoitiga tatbiq etadi va uch matnli qiyosni yangi metodologik vosita sifatida asoslaydi.

Amaliy jihatdan model tarjima tanqidi uchun aniq mezon beradi: har bir siljishning manzilini belgilash imkoniyati tarjimon mahoratiga adolatli baho berishga xizmat qiladi. An'anaviy ikki matnli tanqid o'zbek tarjimonini vositachi matnda allaqachon sodir bo'lgan siljishlar uchun ham aybdor deb hisoblashi mumkin edi; uch matnli qiyos esa bu adolatsizlikni bartaraf etadi va meros yo'qotishlarni ikkinchi bosqich xatolaridan aniq ajratadi. Bu yondashuv tarjima darsliklari va qo'llanmalari uchun ham qimmatli, chunki u bo'lajak tarjimonlarga bilvosita tarjimaning o'ziga xos xatarlarini konkret matniy misollar orqali ko'rsatish imkonini beradi.

Tadqiqot shuningdek asosiy muammo tarjimon salohiyatida emas, aynan usulning o'zida asliyat bilan bevosita aloqaning yo'qligida ekanini isbotlaydi.

Iste'dodli tarjimon vositachi matn doirasida yuqori natijaga erisha oladi, biroq vositachi matnda mavjud bo'lmagan uslubiy belgini tiklay olmaydi. Bu xulosa zamonaviy sharoitda ingliz asarlarini bevosita asliyatdan tarjima qilishga o'tish zarurligini nazariy jihatdan quvvatlaydi va milliy tarjima maktabini rivojlantirishning strategik yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot uch asar va uch janr bilan cheklangan bo'lib, natijalar keng ko'lamli korpus asosida qo'shimcha tekshiruvni talab qiladi. Shuningdek, tahlil asosan sifatiy (kvalitativ) xarakterda bo'lib, kelgusi tadqiqotlarda uslubiy siljishlarning miqdoriy (statistik) taqsimotini o'lchash, shuningdek boshqa vositachi tillar (masalan, fors yoki turk tili) orqali amalga oshirilgan tarjimalar bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Tadqiqot ingliz badiiy asarlarining rus tili orqali o'zbek tiliga bilvosita tarjimasida muallif uslubining saqlanishi masalasini tizimli tahlil qildi va quyidagi asosiy natijalarni berdi. Birinchidan, bilvosita tarjimada uslubiy siljishlar "ikki karra transformatsiya" asliyatdan vositachi tilga va vositachi tildan maqsad tiliga o'tishdagi ikki bosqichli jarayon asosida yuzaga keladi. Ikkinchidan, bu siljishlarni xolis baholash uchun uch matnli qiyos zarur bo'lib, u meros yo'qotishlar, ikkilamchi yo'qotishlar va ikkilamchi kompensatsiyalarni bir-biridan aniq ajratadi. Uchinchidan, muallif uslubi qatlamlari bilvosita tarjimaga turlicha chidamlilik ko'rsatadi: mazmun-mantiqiy o'zak saqlanadi, "yuza" qatlam esa yemiriladi, va yemirilish har safar muallif uslubining tayanch komponentiga tushadi.

Shu asosda nazariy jihatdan "ikki karra transformatsiya" modeli va uch a'zoli tahlil apparati tarjimashunoslikka yangi vosita sifatida taklif etiladi; amaliy jihatdan esa tadqiqot muallif uslubini to'liq qayta yaratishning yagona ishonchli kafolati asliyat tilidan bevosita tarjima ekanini asoslaydi. Bilvosita tarjima faqat obyektiv zaruriyat asliyat tilini biladigan tarjimon bo'lmagan holatlarda oqlanadigan vaqtinchalik chora sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1995. – 312 p.
2. Gutt E.-A. Translation and Relevance: Cognition and Context. – 2nd ed. – Manchester: St. Jerome Publishing, 2000. – 271 p.
3. Pym A. Exploring Translation Theories. – London; New York: Routledge, 2010. – 178 p.
4. Bassnett S. Translation Studies. – London; New York: Routledge, 2002. – 176 p.
5. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London; New York: Routledge, 1995. – 353 p.
6. Newmark P. A Textbook of Translation. – Hemel Hempstead: Prentice Hall, 1988.
7. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992. – 304 p.
8. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – 343 с.
9. Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: Изд-во Московского университета, 2004. – 544 с.
10. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
11. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – 216 с.
12. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 232 b.
13. Komilov N. Bu qadimiy san'at (Tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – 208 b.
14. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 228 b.
15. Ochilov E. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: ToshDShI, 2014. – 144 b.
16. Doyle A.C. The Hound of the Baskervilles. – London: George Newnes, 1902. – 360 p.
17. Stevenson R.L. Treasure Island. – London: Cassell & Co., 1883. – 292 p.
18. Bradbury R. The Martian Chronicles. – New York: Doubleday, 1950. – 222 p.

REFERENCES

1. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge.
2. Bassnett, S. (2002). *Translation studies* (3rd ed.). Routledge.
3. Bradbury, R. (1950). *The Martian chronicles*. Doubleday.
4. Doyle, A. C. (1902). *The hound of the Baskervilles*. George Newnes.
5. Garbovsky, N. K. (2004). *Teoriya perevoda* [Translation theory]. Moscow University Press.
6. Gutt, E.-A. (2000). *Translation and relevance: Cognition and context* (2nd ed.). St. Jerome Publishing.
7. Komilov, N. (1988). *Bu qadimiy san'at: Tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari* [This ancient art: Issues of translation theory and practice]. G'afur G'ulom Publishing House.
8. Komissarov, V. N. (1990). *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)* [Translation theory (Linguistic aspects)]. Vysshaya Shkola.
9. Musayev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari* [Fundamentals of translation theory]. Fan.
10. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
11. Ochilov, E. (2014). *Tarjima nazariyasi* [Translation theory]. Toshkent State Institute of Oriental Studies.
12. Pym, A. (2010). *Exploring translation theories*. Routledge.
13. Retsker, Ya. I. (1974). *Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika* [Translation theory and translation practice]. Mezhdunarodnye Otnosheniya.
14. Salomov, G. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari* [Fundamentals of translation theory]. O'qituvchi.
15. Stevenson, R. L. (1883). *Treasure Island*. Cassell & Co.
16. Toury, G. (1995). *Descriptive translation studies and beyond*. John Benjamins Publishing Company.
17. Venuti, L. (1995). *The translator's invisibility: A history of translation*. Routledge.
18. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). *Neperevodimoe v perevode* [The untranslatable in translation]. Mezhdunarodnye Otnosheniya.